

MAKTABGACHA TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ILG'OR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Hayitova Sanobar

Termiz davlat
pedagogika instituti o'qituvchisi

Gafforova Dilnur

Termiz davlat
pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritilgan. Tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olingan holda, interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, o'yin asosidagi ta'lim, multimedial vositalar va STEAM yondashuvining samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz tilini erta yoshdan o'rgatishning ahamiyati, zamonaviy texnologiyalar orqali bolalarda tilga bo'lgan qiziqish, muloqot ko'nikmalari va ijodiy fikrlashni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Maqola maktabgacha ta'lim tarbiyachilari, metodistlar hamda pedagogika yo'nalishi talabalari uchun metodik qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, ingliz tili, ilg'or texnologiyalar, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, o'yin texnologiyalari, multimedia, STEAM yondashuvi.

Kirish

Bugungi globallashtirish davrida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini bilish shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, chet tilini o'rganishni erta yoshdan boshlash bolalarda tilni tabiiy muhitda o'zlashtirish, to'g'ri talaffuzni shakllantirish hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois so'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilimni asosan o‘yin, taqlid va emotsional idrok orqali qabul qiladilar. Ularning diqqat markazi uzoq vaqt bir nuqtada jamlanmaydi, ammo rang-baranglik, harakat, ovoz va vizual obrazlar bolalarning qiziqishini kuchli jalb etadi. Ana shu psixologik xususiyatlardan kelib chiqib, ingliz tilini o‘qitishda an’anaviy yodlash va takrorlashga asoslangan usullar yetarli samara bermaydi. Aksincha, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan ta’lim jarayoni bolalarning tabiiy qiziqishini qo‘llab-quvvatlaydi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Ilg‘or texnologiyalar deganda, ta’lim jarayonida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, interfaol metodlar, multimedia dasturlari, raqamli platformalar, didaktik o‘yinlar hamda innovatsion pedagogik yondashuvlar majmui tushuniladi. Bunday texnologiyalar maktabgacha ta’limda ingliz tilini o‘qitishda nafaqat bilim berish, balki bolalarda mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, tinglab tushunish va ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xususan, multimediali taqdimotlar, animatsion videolar, interfaol doskalar, mobil ilovalar va onlayn resurslardan foydalanish orqali bolalar ingliz tilidagi so‘z va iboralarni eshitish, ko‘rish va harakat orqali o‘zlashtiradilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ko‘p sezgi organlari ishtirok etgan ta’lim jarayoni bolalarning eslab qolish darajasini bir necha barobar oshiradi. Masalan, qo‘shiq, she‘r va harakatli o‘yinlar orqali o‘rgatilgan so‘zlar bolalar xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi. Shuningdek, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi elementlarini ingliz tili mashg‘ulotlariga integratsiya qilish ham ijobiy natija bermoqda. Bu yondashuv orqali bolalar tilni alohida fan sifatida emas, balki real hayotiy vaziyatlar va faoliyatlar jarayonida o‘rganadilar. Masalan, ranglar, shakllar, tabiat hodisalari yoki oddiy tajribalar ingliz tilida izohlanib, bolalarda nafaqat til ko‘nikmalari, balki mantiqiy fikrlash va tadqiqotchilik qobiliyatlari ham rivojlanadi.

Maktabgacha ta’limda ingliz tilini o‘qitishda ilg‘or texnologiyalardan foydalanish tarbiyachidan ham yuqori kasbiy tayyorgarlikni talab etadi. Tarbiyachi nafaqat til bilimiga, balki zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishi lozim.

Albatta har qanday chet tili darslarida zamonaviy texnologiyalar komputer, ra-dio, CD, DVD qo'llash ta'lim jarayonini yanada olg'a siljib, o'sib kelayotgan yosh avlodga chet tillarni tezroq o'rganish imkonini beradi.

Ingliz tili darslari davomida ba'zi o'qituvchilarning texnologiyalarni qo'llashni bilmasliklari va foydalanmasliklari, o'quvchilarning bir muncha zerikishlariga olib keladi. Aynan shu sababli ya'ni o'rganuvchining ishtiyoqini so'ndirmaslik uchun dars davomida texnologiyalardan va kamida komputerdan foydalanish o'rganuvchining qiziqishini ortib borishini yanada ta'minlaydi. Zero, o'rganuvchining yoshiga, qiziqishiga, qobiliyatiga, darslarni o'zlashtirishiga qarab tayyorlangan oquv materiallari albatta samara beradi. Aksincha, biz o'qituvchilar ushbu talablar asosida o'quv materiallarini tanlamasak, boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab so'zlardan iborat bo'lgan video-filmlar, qo'shiqlar yoki matnlarni eshittirsak yoki mul-timedia, komputerlar orqali namoyish etsak, o'rta va yuqori sinf yoki guruh o'rganuvchilariga juda ham sodda matnlardan iborat o'quv materiallarini namoyish etganimizda o'rganuvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari asta-sekin so'na boshlaydi va darslarni o'zlashtirmay qo'yishadi. Bu esa o'z navbatida baholarning pasayib ketishi, o'qituvchining o'quvchilar oldida o'z hurmatini yo'qotib qo'yishga olib kelishi mumkin. Demak, bundan kelib chiqadiki dars davomida texnologiyalardan shunchaki foydalish emas, balki ularni o'z o'rnida qo'llay bilish va texnologiyalardan foydalanish o'quvchi bilimini oshirishga xizmat qilishini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Hozirgi CEFR ya'ni Xalqaro Yevropa ta'lim standartlarining talablari boyicha to'rta: (writing, reading, listening, speaking) ingliz tilida yozib, o'qib, tinglab, so'zlashib o'rganish kompetensiyalari bo'yicha olib borilayotgan darslar davomida texnologiyalardan unumli va o'rinli foydalanish ahamiatlidir. Masalan, tinglab tushunish darslarida audio matnlarni qo'yib eshittirishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari mavjud. Unda asosiy maqsad o'rganuvchi eshitayotgan audio materialni tushunib olishi va uni qiynalmasdan tahlil qila olishi muhimdir. Buning uchun esa eng avvalo, muhitni audio materailni qo'yib eshittirish uchun hozirlash, bunda tinglovchilar osoyishta muhitni ta'minlashlari, o'qituvchi esa qo'yilayotgan audioning sifatiga hamda ovoz kuchaytirgichlarning yaxshi ishlayotganligiga e'tibor qaratishi va audioni eshittirishdan oldin va keyin bajariladigan mashqlarning tayyor ekanligi va o'rganuvchilar tarqatma

materiallar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Qo'yilgan barcha talablar amalga oshirilgach, o'qituvchi audio materialni o'rganuvchilarga qo'yib eshittirishni boshlashi mumkin. Eshittiruv kamida ikki marta amalga oshiriladi aks holda til o'rganuvchilar mavzuni tushunmasliklari va audio ma-terial eshit bo'lingach bajariladigan mashqlarni to'g'ri bajara olmasliklari mumkin.

Shuningdek, so'zlashib va yozib o'rganishda ham texnologiyadan foydalangan holda dars o'tish jarayonida multimedialardan foydalanib, o'rganuvchilarga video filmlar, roliklar namoyish qilish va uni muhokama qilish juda samarali usul hisoblanadi. Bunda o'rganuvchilarga tanish bo'lgan lug'at ishlatilishi, yangi va murakkab so'zlar ishtirok etgan bo'lsa so'zlarga izoh berish, yangi so'zlar bilan bog'liq bo'lgan mashqlar bajarib olingach, video materialni namoyish etish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirish uchun ham albatta tinch, shovqin bo'lmagan muhit, qulay va toza sinfxona, barchaga tamosha qilish imkonining mavjud jud bo'lishi, ovoz kuchaytirgichlarning ishlayotganini tekshirib chiqish muhimdir. Videoni qo'yib berishdan oldin, o'rganuvchilarning namoyish etilishi kerak bo'lgan video mavzusi haqida suhbatlashish, savol-javoblar o'tkazish, haqiqatdan ham o'rganuvchilar ushbu mavzuga qiziqishayotganliklariga amin bo'lgach video materialni qo'yib berishi kerak. Video tugagach o'qituvchi o'quvchilarning video-film haqidagi fikrlari bilan qiziqishi, mashqlar bajarishi kerak bo'ladi.

Ushbu etaplar to'g'ri amalga oshirilgach, bu darslar albatta o'rganuvchilarning qiziqishlari va bilimlarining ortib borishiga katta hissa qo'shadi. Bundan kelib chiqadiki, darslarimizni yanada boyitish, o'rganuvchilarni qiziqitira olish, ulaming bilimlarini boyitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Ularni to'g'ri va o'rinli qo'llay olish esa yutuqlarimizning asosiy garovi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada ilg'or texnologiyalar asosida ingliz tilini o'qitishning ahamiyati, imkoniyatlari va pedagogik samaradorligi yoritilishi dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. – Toshkent.

Jalolov J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvch

Harmer J. How to Teach English. – Longman.

Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge University Press

Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press.

Nurmonov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.